



**“GUL VA BULBUL” DOSTONI HAMD, NA‘T, MUNOJOT QISMLARI  
MATNLARINING TALQINI VA TAHLILI**

*Abdullayev Bilolxon Xamitjon o‘g‘li*

*O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti  
[bilolxonabdullayev1994@gmail.com](mailto:bilolxonabdullayev1994@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Salohiy qalamiga mansub “Gul va bulbul” dostoni tarkibidagi hamd, na‘t, munojot qismlari matnlarining tahlili amalga oshirilib, muallifning badiiy qarashlari, estetik tafakkuri va ilmiy saviyasi borasida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ilm, hamd, munojo, na‘t, matn, tahlil, talqin, badiiy, tasavvuf, bayt, misra, tafakkur.

**Abstract.** This article analyzes the texts of the praise, na't and munojat parts of the poem "Gul va bulbul" by Salahiy, and discusses the author's artistic views, aesthetic thinking and scientific level.

**Key words:** Science, praise, prayer, poetry, text, analysis, interpretation, artistic, mysticism, couplet, verse, thought.

**Kirish (introduction).** Har bir adabiy asar matnlari yaxlit bir kompozitsion birlik sanaladi va ana shu birlikning paydo bo‘lishi murakkab struktural jarayondir. “Sir emaski, badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisadir. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya-fikr-mazmunni tushunish, anglash shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir”<sup>87</sup>. Ma’lumki, asar matnining o‘zaro mutanosib holda shakillanishida matn yaratuvchi shaxsning ilmiy saviyasi, badiy idroki, tafakkuri, ifoda usuli kabi qator jihatlar hal qiluvchi omil sanaldi.

Ma’lum mavzuda asar yaratilar ekan ayni mavzuda ijodkorda yetarli ilm zaxirasi mavjud bo‘ishi lozim. Zero, Alloh barcha narsaning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va maromiga yetishiga ilmni sabab qilib qo‘ygan. Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallam ham o‘z hadis shariflarida ilmning fazli va ajri haqida ko‘p bora ta’kidlaganlar. Jumladan, quyidagi hadisi sharifda: Abu Dardo‘ raziyallohu anhu Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan quyidagilarni eshitdim dedilar. Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Kim ilm yo‘lini tutsa, Alloh uni jannat yo‘liga yo‘llab qo‘yadi. Albatta, farishtalar ilm talabidagi kishiga rozi bo‘lib, qanotlarini yozib turadilar. Darhaqiqat, olim kishi uchun yer – osmondagi mavjudotlar va hattoki suvdagi baliqlar ham istig‘for aytadilar. Albatta olimning obidga nisbatan fazilati to‘lin oyning yulduzlarga ko‘ra

<sup>87</sup> Бадий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари (масъул муҳаррир А. Курбонбеков, ф.ф.д., проф.). –Тошкент, 2010. –Б107.

fazliga o‘xshaydi. Darhaqiqat, ulamolar payg‘ambarlarning merosxo‘ridir. Payg‘ambarlar dinor va dirhamlarni meros qoldirmadilar, ular faqatgina ilmni meros qoldirganlar. Kimki uni olsa, to‘liq nasiba olibdi” – dedilar<sup>88</sup>. Keltirilgan ushbu Hadisi sharif mazmunidan ilimning har bir ishdagi ahamiyati nechog‘lik yuksak ekanligi yaqqol anglashilib turibdi.

Ilm va olimlarning fazli borasida ko‘plab olimlar, yetuk shaxslar o‘z qarashlarin bayon etganlar, jumladan, hazrat Navoiyning “Olimlarga ta‘zim qilmoq, Ki anbiyolarga ta‘zim qilmoq” misralarini alohida ta‘kidlash darkor. Ya‘ni olinga ta‘zim qilish – bu payg‘abarlarga ta‘zim qilishdek ulkan sharafiga tenglshtirilmoqda. Olimni bunday yuksak maqomga ko‘tarilishga sabab bo‘lgan yagona narsa sifati Navoiy ilm va uning amalini baholamoqda.

**Usul (Method).** Oрта Osiyoda Hadis ilmining rivoji, mashhur muhaddislarimizning Hadislarni sanadlariga ko‘ra sahih, nosahih, hasan, qudsiy kabi turlarga ajratib chiqishlari, mufasssirlarning esa Qur‘oni Karimni tafsurlash, sharhlash, fihiy masalalar bilan bog‘liq ijmo‘, aqoid ilmlarining keng yoyilishi<sup>89</sup> barcha ilmlar qatori tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik kabi sohalarning ham rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Qurr‘on va Hadisnini o‘rganishga, ularning ma‘nosini izohlashga bo‘lgan harakatlar natijasida tafsir, ta‘vil kabi o‘ziga xos ilmlar paydo bo‘ldiki, bu ilmlar matnshunoslik paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning keyingi takomilida munosib ahamiyat kasb etdi.

Asar matni bilan tanishish asnosida shu narsaga guvoh bo‘lindiki, ijodkor o‘z asarida ilm va unga bog‘liq jihatlarga alohida e‘tibor qaratgan. Asarning boshlanishidan tortib to yakuniy qismlarigacha bo‘lgan har bir fasl ilimning mahsuli ekanligini payqash qiyin emas. Har bir misra matnostida ifodalangan ma‘nodan ijodkorning yuqori ilmiy salohiyatga ega ekanligi anglashilib turadi.

**Natija (Results).** Asar matnlari va matnostida ifodalangan mazmun tahlil qilinar ekan, “Gul va bulbul” dostoninning matniy xususiyatlaridan kelib chiqib, uning matn tizimini muvofiq holda qismlarga ajratish muhim sanaladi:

- a) hamd va munajatlar ifoda etilgan matnlar;
- b) na‘t, to‘rt xalifa madhi, Odam Ato va unga bog‘liq qismlar;
- c) asosiy voqealar ifodalangan matnlar;
- d) doston tarkibida qo‘llanilgan g‘azal matnlari kabi.

Salohiy asari matnlari diqqat bilan kuzatilsa, ijodkorning diniy ilmlardan, jumladan, aqoid, Qur‘on, fiqh, Hadis ilmlari, islom tarixi hamda tariqatdan anchayin boxabarligi namoyon bo‘ladi. Sanab o‘tilgan ilmlar asar matnlarining yaratilishiga asos bo‘lgan va shu bilan bir qatorda asarning mazmuniy markazini ham tashkil qiladi. Dostonning har bir fasli ma‘lum ilm asosida yuzaga keladi. Asar tarkibidagi hamd va munajatlar aks etgan fasllar va ularning mazmunida Allohga yuzlanish, murojat qilish kabi masala yetakchi o‘rinni egallaydi. Mazmundagi bu kabi xususiyat, shubhasiz, matn va uning tarkibida ham aks etgan.

<sup>88</sup> <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/ilm-fazilati-bir-hadis-sharhi>

<sup>89</sup> III. Сирижиддинов. Матншунослик сабоқлари. –Тошкент: “Навоий университети” нашриёт-матбаа уйи, 2019. –Б83.

**Muhokama (Discussion).** Masalan, hamd, munojat kabi qismlar matniga diqqat qaratilsa, misra matnlarida aqoid ilmi asosida vujudga kelganligi anglanadi.

بحق نام بسم الله الرحمن  
عطا قیل منکا آخردمده ایمان  
ترحم ایلا رحمن الرحیم سین  
خطا پوش عطا بخش کریم سین

Yuqorida keltirilgan misralar matnida بسم الله, الرحمن, الرحيم kabi so‘zlar qo‘llanilgan. Bu so‘zlar misra matnlarini o‘z atrofida uyushturib matniy butunlikni ta’minlamoqda. Ayni paytda matn tarkibidagi qolgan so‘zlar bevosita, yoki bilvosita yuqorida ta’kidlangan so‘zlarni izohlash uchun xizmat qilgan. Tahlili kechayotgan birliklarga razm solinsa, Allohning ism-sifatlarini ekanligi ma’lum bo‘ladi. Allohning ism-sifatlarini islom etiqodining ajralmas qismi sanaladi. Shunday ekan ayni misralar orqali ijodkorning aqoid ilmidan, xususan Allohning ism-sifatlaridan xabardorligi ko‘rinadi. Dastlabki ikki misrada shoir Xoliq-ul koinotning Alloh, Rohman, Rohim sifatlarini vasila<sup>90</sup> qilish o‘laroq ketar chog‘da iymon bilan ketishini so‘rasa, keyingi ikki misrada Rohman va Rahim sifatlarini orqali xatolarni berkituvchi va avf etuvchiligi, Karim sifati bilan esa so‘ralmasa ham hech qanday evazsiz ko‘plab narsalarni ato etuvchi zot<sup>91</sup> ekanligiga urg‘u beradi. Muallif tahlili kechayotgan misralarni Alloh taoloning: **“Allohning go‘zal ismlari bordir. Bas, Unga o‘sha (ism)lar ila duo qiling”** (A’rof: 180-oyat), degan oyatidagi xitobiga javoban yaratilganligi oydinlashadi.

Asarning munojat qismining yana boshqa o‘rinlarida ijodkorning Qur’oni karim (Ulumul Qur’on) ilmidan xabardorligiga dalolat etuvchi baytlar mavjud.

الحی عرش برله کرسی حقى  
كى فرقان آيتى سورسى حقى  
بحقى حرمتى طاها و ياسين  
بحقى سوره خاميم طاسين

Ushbu baytlarning avvalgisida Allohga duo ila yuzlangan ijodkor A’rsh va Kurs (birinchi misra) hamda Qur’on oyati va suralarini (ikkinchi misra) vasila qilmoqda. Vasila haqida so‘z borar ekan bu so‘z “lug‘atda “u bilan o‘zgaga yaqin bo‘linadigan narsa” ma’nosini anglatadi. Istilohda esa “duo ijobat bo‘lishi uchun Alloh taologa Uning huzurida qadrli ekani bilingan narsani aytib duo qilish, vasila deb ataladi... Vasila duoning maqbul bo‘lish darajasini ko‘tarish maqsadida qilinadi”<sup>92</sup>. Keyingi ikki misra avvalgi juft misraning mantiqiy davomi, o‘ziga xos sharxi hisoblanib, ijodkor avvalgi baytdagi “Sura” bilan kifoyalanmay, balki keyingi baytda “Toha, Yasin, Xamiym, Tosiyn kabi aytilmoqchi bo‘lgan Qur’on suralarini nomma nom tilga oladi. Muallifning 114 sura ichida aynan yuqorida sanab o‘tilgan suralarning nomini misralarda ifodalashi bejiz emas, nazarimizda. Bu bilan shu suralar asnosida ifoda etilgan masala, hukmlar haqida ijodkorda atroflicha ma’lumotlar bo‘lganligini payqash mumkin bo‘ladi. Muallif misra

<sup>90</sup> <https://islom.uz/maqola/3607>

<sup>91</sup> <https://islom.uz/maqola/149>

<sup>92</sup> <https://islom.uz/maqola/3607>

matnlrida yuqorida sanab o‘tilgan Qur‘on suralari nomlarini zikr etish bilan matnning sodda va lo‘nda ifodasini ta‘min etgan bo‘lsa, mazmun bayonining kengayishiga erisha olgan. Ayni paytda Salohiy ushbu usul bilan o‘z zamonasi insonlarni kitob o‘qib, ilm olishga o‘ziga xos tarzda, hech qanday da‘vatsiz chorlaydi. Ya‘ni ijodkor misra matnida Toha, Yasin, Xamiym, Tosiyn kabi Qur‘on suralarini keltirib, ularni ma‘nosiga ishora qiladi. O‘z navbatida asarni mutolaa qilgan kitobxon ayni misralarni o‘qir ekan, sura nomlariga ko‘zi tushadi. Agar bu suralar mazmuni bilan tanish bo‘lsa, unda bu hol ayni kitobxonni tafakkurga chorlaydi. Tafakkurga berilgan o‘qiguvchi mazkur holdan cheksiz estetik zavq oladi va ruhan tetiklashadi. Ammo doston misralarini qiroat qilayotgan shaxs misra matni tarkibidagi tahlil qilinayotgan nomlarga duch kelib, o‘yga toladi va ayni sura oyatlari zamirida qanday ma‘nolar berilganligiga qiziqqa boshlaydi. Kitobxon qiziqish sabab oyatlar mazmuni bilan tanishmoq uchun yo kitob titkilaydi, yoki bo‘lmasa, ushbu ilmdan xabardor kishidan so‘ramoqqa tutinadi. Shunday qilib ijodkor ikki misra bilan butun boshli xalq ommasini ezgulikka chorlamoqchi bo‘ladi.

Asarning bir necha o‘rinlarida Qur‘oni karim suralari, oyatlariga murojat qilinadi va ulardan iqtiboslar keltiriladi. Chunonchi, ijodkor asarning “Munojoti badargohi qozoyil hojat” faslining so‘ngida quydagicha misralar keltiriladi:

بحق لوح محفوظ قلم دين

ظلمنا ربنا اغفر ظلمدين

Baytning ikkinchi misrasida ifodalangan *ظلمنا ربنا* birligi Qur‘oni karim An‘fol surasi 23-oyatining boshlanmasi sanaladi va oyatning umumiy ko‘rinishi mana bunday: **“Robbana zolamna anfusana va illam tag‘fir lana va tarhamna lanakunanna minal xosirin.** Oyati ma‘nosi: “Ikkovlari: Robbimiz, o‘zimizga zulm qildik. Agar bizni mag‘firat qilmasang va bizga rahm qilmasan, albatta, ziyon ko‘rguvchiardan bo‘lamiz” – dedilar”<sup>93</sup>. Ma‘lumki, Odam alayhissalom onamiz Havvo Alloh taolo taqiqlagan daraxt mevasidan yeb, gunohkor bo‘lishadi. Gunohlarini kechirilishini so‘rab, ancha vaqt yig‘lab duo qilishadi. Natijada ularning duolari qabul bo‘lib, G‘ofur, Rohim bo‘lgan zot ularni mag‘firat etadi. Alloh bu oyatlarni islom ummati uchun rahmat o‘laroq nozil qilib, Odam alayhissalom va Momo Havvodan o‘rnak olishga va o‘z ota-onalari kabi nasuh tavba qilishga chaqiradi. Ijodkor ushbu oyatning boshlanmasini keltirib, o‘zining otasi Odam kabi tavbaga yuz buradi va qilgan gunohlari uchun Allohdan mag‘firat so‘raydi. Ayni damda ijodkor o‘zi tavbaga yuzlanibgina qolmay, balki asar o‘qiguvchisini ham o‘z ajdodlari kabi istig‘forgia chorlaydi.

Tahlil etilgagan fasllardan ko‘rinadiki, asar matnlari tarkibida keluvchi ayrim jumla va birikmalar ostida insoniyat tarixida yuz bergan muhim voqealarga ishoralar mavjud. Ijodkor o‘z asari matnosti ma‘nolari orqali bu kabi muhim voqealarni berish bilan kitobxonni tafakkurga, mushohadaga chorlab, bo‘lib o‘tgan voqealardan xulosa chiqarishga undaydi.

Mullif shaxsiyati, badiiy qarashlari, ijodiy mahoratini tadqiq qilishda asar matnlari, xususan, na‘t, to‘rt xalifa madhi va ayrim tarixiy voqealar ifoda etilgan qismlarning o‘rni

<sup>93</sup> Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол (тўлдирилган ва қайта ишланган нашр) II жуз. – Тошкент: “Ҳилол – Нашр”, 2018. –Б,297.

benihoya katta. Ayrimlarda bu bir klassik an‘ana, ya‘ni ma‘lum asar yaratilar ekan uning tarkibida hamd, na‘t, to‘rt halifa madhi va insonni yaratilishi bilan bog‘liq voqealar bayon etilishi tabiiy holat degan tushuncha paydo bo‘ladi. Biroq masalaning boshqa tomoni ham borki, bu jihatga alohida ahamiyat qaratmoq kerak. Haqiqatdan, asarlarni bu taqlid boshlash oddiy an‘anadek ko‘rinadi, biroq yetarli ilm, salohiyat, badiiy qobiliyat va ayni damda barchasini umumlashtirib, kitobxonga yetkaza bila oladigan o‘ziga xos uslub bo‘lmasligi ishni saviyasiga putur yetkazishi muqarrar. An‘ana sifatida yaratib kelingan bu qismlar har bir asarda o‘ziga xos tarzda beriladi. Unda asar muallifining o‘ziga xos qarashlari, badiiy tafakkuri, shaxsiyati namoyon bo‘ladi. Tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilinayotgan “Gul va bulbul” dostoni tarkibidagi na‘t, to‘rt xalifa madhi fasllarida muallifning manaviy qiyofasi, badiiy tafakkuri kabi muhim jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Asarning na‘t, to‘rt xalifa madhi, Odam Ato va Momo Havvoga bag‘ishlangan fasllarda ijodkorning tarixga oid qarashlari o‘ziga xos tarzda aks etadi. Jumladan, keltirilayotgan misralar zahirida muhim tarixiy faktni badiiy qolipga sola bilgan va uni o‘zgacha tarzda ifoda etgan.

ایشا رت قیلدی آی اکی بولندی

فوچوق اول آی فوتون بولوب کوروندی

محمد معج ذ سینی کوروبان

جوھودلار اکثری کلتوردی ایمان

Mazkur ikki bayt orqali muallif islom tarixida bo‘lib o‘tgan muhim voqealardan biri o‘yning ikkiga bo‘linishini tasvirlamoqchi bo‘ladi. Baytlar zahirida aytilmoqchi bo‘lgan fikr quyidagi rivoyatda batafsil ifoda etilgan:

“Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Makka ahli Muhammad alayhissalomdan haqiqiy Payg‘ambar ekanliklariga dalil sifatida hujjat – mo‘jiza ko‘rsatishni so‘radilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam duo qildilar. Alloh taolo u kishining duolarini qabul qildi va oy ikkiga bo‘lindi. Ikki bo‘lakning orasida Hiro g‘ori ko‘rinib turardi...”

Imom Ahmad Jubayr ibn Mut‘imdan shunday rivoyat qiladilar:

“Nabiy alayhissalomning vaqtlarida oy yorilib, ikkiga bo‘lindi. Bir bo‘lagi manavi tog‘ ustida, ikkinchi bo‘lagi anavi tog‘ning ustida ko‘rindi. Mushriklar “Muhammad bizni sehrlab qo‘ydi”, deyishdi. So‘ng ular “Bizni sehrlasa ham, hammani sehrlay olmaydi, musofirlar kelishini kutib turinglar”, deyishdi. Musofirlar kelishganda ulardan so‘rab ko‘rishgan edi, musofirlar ham o‘yning yorilganini ko‘rganlarini aytdilar”<sup>94</sup>.

Berilgan ikki bayt muallif badiiy mahorati, tafakkur olamini keng ekanligining yorqin dalili desa bo‘ladi. Chunki ijodkor “Oy bo‘linish hodisasi”ni ikki misra tarkibiga jo eta oladi. Bu muallifning badiiy mahoratiga dalolat qilsa, keyingi ikki misrada o‘sha voqea sabab juhudlarning aksari iymon keltirishi, ijodkor umumiy ma‘no orqali insonlarni o‘tmishni eslashga va undan ibrat olib, go‘zal hayot kechirishga unadshi uning ma‘naviy qiyofasini bor bo‘yi bilan tasvir etuvchi o‘rinlardir.

<sup>94</sup> <https://www.islom.uz/view/oynig-bo'linishi>

Tarixga doir voqealar baxsi kechayotgan fasllarda ko‘plab uchraydi. Chunonchi, tubanda kelgan misralar tagmatnida ifodalangan ma‘nodan muallifning yana bir muhim tarixiy voqelikka ishorasini ko‘rish mumkin.

چقیب معرجیغ اومت تیل کان

کونه کاراومتی غمینی یکان

Baytda ijodkor Isro va Me‘roj kechalariaga va undagi bo‘lib o‘tgan voqealarga o‘quvchini diqqatini qaratadi. “Rasulullohning Makkadagi Masjidi Haromdan Baytul Maqdisga bir kechada borib kelishlari “Isro” deb, shu kuni kechasi osmonga chiqib, ruhiy olam bilan tanishib qaytganlari esa “Me‘roj” deb ataladi”<sup>95</sup>. Berilgan ikki misra o‘ziga xos kompozitsiya hisoblanib, ular bir-biri bilan mazmuniy bog‘lanadi va ma‘lum ma‘noni bildiradi. *Isro, me‘roj, ummat tilamoq, gunohkor ummat, g‘am yemoq* kabi birliklar misra tarkibidagi asos so‘zlar sanaladi, hamda misraning shakily va mazmuniy butunligiga xizmat qiladi va ayni chog‘da shu so‘zlar vositasida misraning umumiy ma‘nosi shakllanadi. Ta’kidlash joizki, ayni so‘z va iboralar umumma‘noni ifodalashdan tashqari mustaqil holda har biri alohida-alohida voqealrni o‘zida mujjassam etadi. Jumladan, ummat tilamoq birikmasi

**Xulosa (Conclusion).** Na’t, to‘rt xalifa madhi, inson yaratilishi va u bilan bog‘liq tarixiy voqeliklar tasvirlangan fasllar tarkibidagi matnlar vositasida ifodalangan mazmundan inson tarixni bilishi, uni tahlil eta olishi hamda undan tegishli xulosa chiqarib, hayotning asl mohiyatini anglashiladi. Zero, atoqli ma‘rifatpar Abdula Qodiriy aytganidek o‘tmishni eslab ish ko‘rmoq xayrlidir. Ijodkor shu ma‘noda tahlili borayotgan fasllarning turli o‘rinlarida ko‘plab insoniyatga o‘rnak bo‘ladigan tarixiy voqeyliklarni qo‘llagan bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas.

### ADABIYOTLAR:

1. Ш. Сирижиддинов. Матншунослик сабоқлари. –Тошкент: “Навоий университети” нашриёт-матбаа уйи, 2019.
2. Бадиий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари (масъул муҳаррир А. Қурбонбеков, ф.ф.д., проф.). –Тошкент, 2010.
3. Муҳаммад ибн ал-Хузарий. Нурул яқин (Расулуллоҳ алайҳиссалом сийратлари). – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази” нашриёти, 2020. –Б84.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол (тўлдирилган ва қайта ишланган нашр) II жуз. – Тошкент: “Ҳилол – Нашр”, 2018.
5. Abu Salohiy. Gul va bulbul. Qo‘lyozma. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi. Inv. №3402.

<sup>95</sup> Муҳаммад ибн ал-Хузарий. Нурул яқин (Расулуллоҳ алайҳиссалом сийратлари). – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази” нашриёти, 2020. –Б84.